

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI**

**“MOLIYA” KAFEDRASI**

# **KURS ISHI**

**Mavzu: Aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni  
takomillashtirish**

**Bajardi: MM-77 Abdusattorov Sh.  
Tekshirdi: kat. o'q. Sultanov Sh.**

**TOSHKENT-2014**

## **KIRISH**

1. Aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmiga o'tishning tashkiliy-nazariy jihatlari
2. Aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tashkil etishda menejer-aktsiyador munosabatlarini boshqarish
3. "O'zbekengilsanoat" uyushmasi korxonalarida korporativ boshqaruvning joriy holati tahlili
4. Korporativ boshqaruv mexanizmidagi zamonaviy muammolar va ularni bartaraf etishning xorijiy tajribalari

## **Xulosa**

## **Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati**

## KIRISH

Hozirgi kunda aktsiyadorlik jamiyatlari (korporatsiyalar) milliy iqtisodiyotning istiqbolini belgilashda ko'proq rol o'ynamoqda va ular ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali muhim ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajarmoqda. Shu bilan bir paytda aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimining sust faoliyati korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish, unga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish, istiqbolli korporativ strategiyani amalga oshirish va shu kabi boshqa ustuvor vazifalarni hal etishni kechiktirmoqda.

Mamlakatimizda nisbatan qisqa davr ichida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqlarini himoya qilish hamda qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi va boshqa qonunlarning qabul qilinishi to'liq ma'noda xususiy mulkchilik huquqini himoya qilish hamda iqtisodiy o'sishni harakatlantiruvchi asosiy kuchga aylanishi mumkin bo'lgan raqobatbardosh milliy aktsiyadorlik jamiyatlari shaklidagi korporativ tadbirkorlikni rivojlanishiga muhim asos yaratdi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilgan institutsional islohotlar hamda yirik davlat korxonalarini aktsiyalashtirish natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlari vujudga keldi.

Ushbu toifadagi korxonalar korporativ boshqaruvning dunyoda tan olingan samarali shakllaridan hisoblanadi. Prezident I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: "Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida etakchi o'rin tutadigan mamlakatlar korporativ boshqaruv tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat

ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin"<sup>1</sup>.

Shu nuqtai nazardan mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida<sup>2</sup> "Aktiyadorlik jamiyatlari va aktiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunni tanqidiy qayta ko'rib, yangi tahrirda ishlab chiqish va qabul qilish hamda unda korporativ boshqaruv va nazorat organlarining vakolatlari, huquqlari va javobgarligini yanada aniq belgilash lozim"ligini ta'kidlashi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Shularni inobatga olganda ochiq aktiyadorlik jamiyatlari rivojlanish strategiyasini tanlashda korporativ boshqaruv organlarining rolini oshirish; aktiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini baholash usullari va dividend siyosatini, shuningdek, korporativ boshqaruvning ichki korporativ me'yoriy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish sharoitida muhim dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

## **1. Aktiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmiga o'tishning tashkiliy-nazariy jihatlarini**

O'zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri, iqtisodiyotning real sohalarida faollikni jonlantirishga yo'naltiruvchi moliyaviy barqarorlikka erishish hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotida aktiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli yashovchanligi va raqobatbardoshligini ta'minlash masalasi ular ishlab chiqarish salohiyatini tubdan o'zgartirish va zamonaviylashtirish zaruriyatini keltirib

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi". 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturlarning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" 2012 yil 21 yanvar.

<sup>2</sup> I.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. // Xalq so'zi. № 220 (5135), 13.10.2010.

chiqardi, va bunga katta hajmdagi kapital quyilmalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar talab qilinadi.

Mustaqillik yillarida respublika iqtisodiyoti real sektoriga faol ravishda investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi sifatida fond bozori shakllandi<sup>3</sup>, hamda ko'p ukkladli iqtisodiyotni qurish uchun zarur poydevor bo'lgan yangi mulkiy munosabatlarning o'rnatilishiga imkon beradigan qonunchilik negizi yaratildi.

O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohatlar mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurishga qaratilgan bo'lib<sup>4</sup>, ularning asosiy mahsullaridan biri tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan turli mulkchilikka asoslangan aktsiyadorlik va ulush-paychilik shakllaridagi korxonalar hisoblanadi. Ularning samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan korporativ munosabatlar tizimini rivojlanishiga bevosita bog'liqligi sababli hozirda aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv asoslarini chuqurroq o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida samarali faoliyat yuritishning korporativ boshqaruv modeli va mexanizmi aktsiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, barqaror industrial va iqtisodiy o'sishni ta'minlash<sup>5</sup> kabi muammolar echimini taminlashi mumkin. Bu muammolarni samarali echimi kompaniyalarning moliya bozoridagi raqobatbordoshliligi va havfsizligi, barqarorligi hamda investorlar uchun jalbdorliligi va risksizligi darajasini ta'minlash bilan uzviy bog'liq.

Biroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ko'lami va sur'atlari hali qoniqarli bo'lmay, bunga xorijiy investorlarni qiziqtirish uchun etarli sharoit to'g'irilmaganligi sabab bo'lmoqda. Xususan, respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov «Bugungi kunda respublika fond bozori va qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishlarning ahvoli ham

---

<sup>3</sup>. Analiticheskiy obzor za 2006 g. Jurnal «Ekonomika Uzbekistana». T.: TsEEP №4-2006g. s 29.

<sup>4</sup> Riskiev T.T., G'ulomov S.S., Shoha'zamiy Sh.Sh. va boshq. Istiklol, demokratiya va fukarolik jamiyati.-T.: Shark, 2003.-160 b.

<sup>5</sup> «Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashtirish, texnik va texnologik qayta jihozlashtirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2007 yil 14 mart, №UP-114; «Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 2006 yil 27 sentyabr, №PP-475.

bizni qoniqtirmaydi. Bunday ahvol ko'p jihatdan korxonalaridagi korporativ boshqaruv tizimidagi jiddiy kamchilik va nuqsonlar bilan bog'liq»<sup>6</sup>, - deb bejiz aytmagan edi.

Shuni aytish kerakki, keyingi yillarda aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning tashkiliy mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish etarli darajada emasligi namoyon bo'lmoqda.

Korporativ boshqaruvning muammolarini bartaraf etish nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etib, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida mazkur faoliyat muammolarini tadqiq etuvchi nazariy ishlanmalar va amaliy asoslarning sezilarli darajada zamon talabidan ortda qolayotganligi ushbu muammolar bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini alohida qayd etmoqchimiz. Yuqorida ta'kidlanganlarning barchasi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab berib, mazkur sohada alohida ilmiy izlanish olib borishni taqazo etmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda fond bozorlarini shakllantirish jarayonlari bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko'p jihatdan investitsion infratuzilmaning o'z vaqtida yaratilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Mustaqil O'zbekiston fond bozori shakllanishining xususiyati shundan iboratki, fond bozorida faoliyat ko'rsatuvchi emitentlar va investorlar kapital bozorining imkoniyatlariga yaqin yillardan boshlab tushuna boshlamoqdalar va ulardan foydalanishga harakat qila boshladilar.

Shu bilan birga, bu ikki toifaga xizmat qiluvchi vositachi tomon – ixtisoslashtirilgan infratuzilma institutlari fond aktivlari bilan ishlash amaliy tajribasi hali kam bo'lib, ularning rivojlanish darajasi milliy iqtisodiyotning o'sib boruvchi ehtiyojlaridan orqada qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning « O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» kitobida: “Iqtisodiyotni erkinlashtirish haqida so'z yuritar ekanmiz, bozor infratuzilmasini rivojlantirish

---

<sup>6</sup> Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. T.: O'zbekiston. 2007 yil

zaruriyati to'g'risida yana va yana bir marta gapirishga to'g'ri keladi. Ravshanki, tarmoqlangan bozor infratuzilmasi shakllanmas va to'liq hajmda ishlab ketmas ekan - fond bozori ham ishlamaydi<sup>7</sup>...»

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini isloh qilishning yangi bosqichi, ham mulkchilik shakli, ham ishlab chiqarish munosabatlari bo'yicha xo'jalik yuritishning bir-biridan farqlanuvchi usullarini rag'batlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Korporativ boshqaruvning kuchli jozibaga molik tomonlaridan biri shundan iboratki, uni joriy qilganda, o'z biznesida odatda uzoq muddatli maqsadlarga erishish imkoniyatlari yaratiladi. Serharakat investorlar manfaatlarining e'tibori, yollanma menejerlar manfaatlarini bilan o'yg'unlashishi sodir bo'ladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida potentsial investorlar sinfini shakllantirish, investitsiyalarni keng ko'lamda jalb qilish orqaligina «ishni, kapital to'plashni kengaytirish» haqiqatda mumkinligini mahalliy mulkdorlar hali to'la tushunib etganlari yo'q.

Korporativ boshqaruvning ta'sir doirasi aktsiyadorlar yoki korporatsiyalar manfaatlarini sohasidan ancha kengroq bo'lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishining hal qiluvchi omillaridan biriga aylanmoqda.

Jahon banki va Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (IHRT) 1999 yildayoq<sup>8</sup>, korporativ boshqaruv mamlakatning raqobatbardoshlik manbai va iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining muhim omili ekanligini e'tirof etgan.

Zamonaviy iqtisodiyotda aktsiyadorlik jamiyatlari xo'jalik yuritish amaliyotida korporativ boshqaruvning keng tarqalganligi u yoki bu mamlakatning ochiqlik va rivojlanish darajasini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Samarali kompaniyalar va korxonalarsiz mamlakat turmush farovonligini oshirish va qo'shimcha ishchi o'rinlarini hosil qilish uchun sharoitni ta'minlay olmaydi.

---

<sup>7</sup> I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: O'zbekiston. 1999. 33-34 b.

<sup>8</sup> A.S.Begmatov, M.B.Xamidulin, M.Sh.Bo'taboev. Korporativ madaniyat va korporativ boshqaruv.- T: «Akademiya» nashriyoti, 2007 y., 224 b.

Davlat uchun investitsiyalar jalb qila oladigan, ishchi o'rinlari va moddiy boyliklarni yarata oladigan, yashovchan va jahon bozorida raqobatbardosh bo'la oladigan, korporativ boshqaruv saviyasi hamda mezanizmi yaxshi tashkil etilgan korxonalar kerak.

Shuning uchun ham zamonaviy korporativ boshqaruv milliy iqtisodiyotni rivojlanishi uchun zaruriyatga aylanib bormoqda.

Mazkur jarayonlardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, korporativ boshqaruvning lozim amaliyoti barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun korxonalar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish va o'zida saqlab qolishning muhim shartiga aylangan bo'lib, quyidagilar uchun o'ta zarurdir:

1. Mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish, investorlarga ularning investitsiyalarini boshqarishda havfsiz va samarali, boshqarish tizimi esa ravshan va muvofiq hisob-kitob yuritilishiga imkon berishi xususida kafolatlarning ta'minlanishi.

2. Raqobatbardosh va samarali faoliyat yurituvchi yirik kompaniyalar va korxonalarni bunyod qilish.

3. Korporatsiyani boshqarishda investorlarning mablag'lari ishonib topshirilgan yollanma menejerlarning hisobdorligi va faoliyati samardorligini kuchaytirish.

4. Cheklangan resurslardan samarali foydalanishni qo'llab-quvvatlash.

Aktsiyadorlik jamiyati samarali faoliyati va investitsion jalbdorligining asosi korporativ hamjamiyatning barcha ishtirokchilari orasidagi ijtimoiy hamkorlik muhiti va o'zaro ishonchdir. Uning shakllanishi uchun korporativ hulq tamoyillariga rioya qilinishi zarur bo'lib, uning mazmuni aktsiyadorlik jamiyatini boshqarish bilan bog'liq paydo bo'ladigan munosabatlarda ishonchni hosil qilishga qaratilgandir.

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitida, samarali korporativ boshqaruvni qurishning asosiy tamoyillarini yaratilishiga kuchli zarurat etildi.

Korxonalarining muvoffaqiyatli va barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan, uning tashkiliy tuzilmasiga bog'liq bo'ladi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida

eng keng tarqalgan mulkchilik shakli korporativ ko'rinishda bo'lib, deyarli barcha o'rta va katta bizneslar korporatsiya shaklida tashkil etilgan. Masalan, O'eneral Motors, Bank of Amerika, Maykrosoft, British Petroleum, Nestle, Tayota, Keys, Folksvagen, Soni va boshqalar. Har bir holatda ham firmalar biznesda o'z ulushiga ega bo'lgan aktsiyonerlar tomonidan egalik qilinadi.

Korporatsiya dastlab tashkil etilganda, uning aktsiyalari kichik guruhdan iborat investorlar (kompaniya menejeri va uni qullovchi ayrim shaxslar) qo'lida bo'ladi. Bunday hollarda kompaniya aktsiyalari ochiq holda keng ommaga sotilmaydi va kompaniya yopiq hisoblanadi. Keyinchalik kompaniya kengayib, qo'shimcha kapitalni jalb etish uchun qo'shimcha aktsiyalar muomalaga chiqariladi, uning aktsiyalari keng miqiyosda sotila boshlaydi. Bunday kompaniyalar ochiq (pablik) kompaniyalar deyiladi.

Korporatsiyani tashkil etish bilan, biznes keng turli investorlarni jalb etishi mumkin. Ularning ayrimlari bir necha dollarga teng bo'lgan juda kichik miqdordagi aktsiyalarga egalik qilishi, yagona ovozga ega bo'lishi va daromad hamda dividendning juda kichik miqdorini olishi mumkin. Shuningdek, yirik pensiya jamg'armalari va sug'urta kompaniyalari kabi ayrim katta aksionerlar millionlab dollarga teng qiymatli ko'p sonli aktsiyalarga egalik qilishi mumkin. Ular o'z navbatida hal qiluvchi ovoz berish huquqi egalik qilishadilar va daromad hamda dividendning katta qismini olishadilar.

Korporatsiyalar aktsiyadorlar tomonidan egalik qilinsada, huquqiy jihatdan aktsiyadorlar korporatsiyadan ajratilgan. Ko'plab huquqiy maqsadlar uchun korporatsiyalar davlatning rezidenti sifatida qaraladi. Yuridik shaxs sifatida u pulni qarzga olishi, berishi, sudda da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etishi mumkin (ammo korporatsiyalar saylovlarda ovoz bermaydilar).

Korporatsiyalar o'z aktsiyadorlaridan alohida bo'lganligi uchun, ular sherikchilik va yakka tadbirkorlar qila olmaydigan faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin. Masalan, ular kapital yig'ish maqsadida yangi aktsiyalarni chiqarib investorlarga sotishi yoki aksincha aktsiyalarni qaytarib sotib olishi mumkin. Bir

korporatsiya boshqa birini sotib olishga pul tikib, keyin ikkala biznes birlashishi mumkin.

Demak, xorij amaliyotida etarlicha yuqori mavqeiga ega bo'lgan korporativ boshqaruv – bugun mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun ham yangi shakllanayotgan boshqaruv tizimiga aylanmoqda.

Shunday qilib, ilmiy ishimizning birinchi paragrafi doirasida mavzu oldidagi birinchi vazifani imkon darajasida yoritishga harakat qildik. Mana shu nazariy echimlarga tayanib, biz tadqiqot ishimizning navbatdagi paragrafiga o'tamiz. Endi bizning oldimizda, yuqorida ta'kidlanganidek, ikkinchi vazifa aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tashkil etishda menejer-aktsiyador munosabatlarini boshqarish masalalarini imkon darajasida o'rganib chiqish va uning zamirida muayyan xulosalar chiqarishga harakat qilamiz.

## **2. Aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tashkil etishda menejer-aktsiyador munosabatlarini boshqarish**

Korporativ boshqaruvning mexanizmini tavsiflash uchun, fikrimizcha, quyidagi munosabatlarni ko'rib chiqish zarur: mulkdorlar<sup>9</sup> guruhi ichida, menejerlar guruhi ichida, mulkdorlarning va menejerlar o'rtasidagi munosabatlar, mulkdorlar va moliya bozori o'rtasidagi munosabatlar, mulkdorlar vakillari va mehnat bozori o'rtasidagi munosabatlar, menejerlar va mahsulot bozorlari o'rtasidagi munosabatlar. Ushbu sanab o'tilgan korporativ munosabatlarni yanada chuqurroq ko'rib chiqadigan bo'lsak, birinchi navbatda, mulkdorlar guruhiga kimlar mansubligini bilish zarur.

Korporatsiya mulkdorlarini individual va instituttsional mulkdorlarga bo'lish qabul qilingan. Individual investorlarga jismoniy shaxslar, tashkilotlar va boshqa korporatsiyalar kirsas, instituttsional investorlarga esa, pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, investitsion fondlar, banklar kiradi.

---

<sup>9</sup> “Mulkdorlar-aktsiyadorlar” tushunchasi sinonimdir


Korporatsiya singari murakkab tizimni yagona shaxs tomonidan boshqarish mumkin bo'lmaydi, shuning uchun ham korporatsiyani menejerlar guruhi boshqaradi. Menejerlar guruhi ma'lum vakolatlarga ega bo'lgan boshqarish organini tashkil etadi.

Korporativ boshqaruv mexanizmini tadqiq etish, korporativ boshqaruvni mohiyatini o'rganishga asos bo'ladi va uni korporativ boshqaruv modeli orqali ko'rib chiqamiz (1-rasm). Shuni ta'kidlash lozimki, aksionerlik jamiyatining ishtirokchisini yagona majburiyati bu – mulkiy badalni to'lash bo'lib, boshqaruvda ishtirok etish uning majburiyatiga kirmaydi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, munosabatlar korporatsiya ichidagi mulkdorlar o'rtasida emas, balki korporatsiya va mulkdorlar o'rtasida yuzaga chiqadi, ya'ni mulkdorlar guruhi o'rtasida munosabatlar mavjud emas, yoki bu munosabat minimallashtirilgan.

Pastda keltirilgan model korporativ boshqaruv mexanizmini, undagi ishtirokchilar va ushbu model ichidagi munosabatlarni o'rganish imkonini beradi. Chizmadan yaqqol ko'rish mumkinki, ushbu model doirasida korporativ munosabatlarning ishtirokchilari bo'lib mulkdorlar, menejerlar, ichki va tashqi vositachilar hisoblanadi. Fikrimizcha, mulkdorlarning direktorlar kengashi doriasidagi munosabatlari ularning o'zaro munosabati emas, balki mulkdorlarning korporatsiya bilan o'rtasidagi munosabati bo'lib hisoblanadi.

### Korporativ boshqaruv modeli<sup>10</sup>



Mulkdorlarning guruh ichidagi o'zaro munosabati sifatida, ayrim mulkdorlarning boshqa mulkdor aksiyasi hisobidan ovoz berish uchun ishonchnoma olishini ko'rsatish mumkin (bu operatsiyalar ham odatda uchinchi shaxs orqali amalga oshiriladi). Menejerlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar izlanishning boshqa turiga mansubligi uchun (tashkil etish nazariyasi, korxonaxloqi, menejment psixologiyasi va hakazo), odatda, ushbu munosabatlarni korporativ munosabatlar tizimida o'rganilmaydi. Mulkdorlar va moliya bozori o'rtasidagi munosabatlar, mulkdorlar vakillari va mehnat bozori o'rtasidagi munosabatlar, menejerlar va mahsulot bozorlari o'rtasidagi munosabatlar

<sup>10</sup> Ansoff I.X. Novaya korporativnaya strategiya. / Per. s angl. – SPb: PiterKom, 1999. – 116 s.

korporatsiya ichidagi munosabatlar doirasidan chetga chiqadi va ushbu munosabatlarning korporatsiya bilan vositachilik ko'rinishidagi munosabatlarigina o'rganiladi. Shunday qilib, faqatgina mulkdorlar bilan menejerlar o'rtasidagi munosabatlar, uning mohiyatini ochib beruvchi mexanizmlar korporativ boshqaruvning tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganiladi. Menejerlarning samarasiz ishlashidan mulkdorlarni himoya qilish bunday o'zaro munosabatlarning asosini tashkil etadi. Korporatsiyani samarali boshqarishning diqqatga sazovor tomoni shundaki, bu nafaqat yollanma menejerning professionalligidan, balki menejer motivatsiyasining mulkdorlar manfaatlariga mos kelishiga ham bog'liq bo'ladi.

Korxonalarining klassik nazariyasiga ko'ra, menejerlar mulkdorlar manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritadilar. Ammo, amaliyotda umuman boshqacha holatlarni ham guvohi bo'lish mumkin. Gap shundaki, menejerlar ham inson va ko'pchilik holatlarda ularning shaxsiy manfaatlarini boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy rol o'ynadi. Buni korporatsiya menejerining imiji masalasida (boshqaruv binolari, boshqaruv uchun yirik xarajatlar), riskka bo'lgan munosabatda (menejerlar qaror qabul qilib, uni amaliyotga qo'llaydilar, ammo har doim ham ushbu qarorlar bo'yicha javobgarlikni o'zlariga olavermaydilar), xuddi shunday investitsion, ishlab chiqarish va strategik siyosat masalalarida (masalan, menejerlar iqtisodiy natijaga erishish emas, balki o'z ta'sir doirasini kengaytirish) kuzatish mumkin. Mulkdorlar bilan menejerlar o'rtasidagi bunday qarma-qarshilik agentlik muammosi (yoki qarama-qarshiligi) deb ataladi. Quyidagi 2-chizmadan boshqaruv jarayonida mulkdorlar bilan menejerlar o'rtasidagi qarashlar tafovutini yaqqol ko'rish mumkin. O'z-o'zidan savol tug'iladi: mulkdor qanday qilib o'z manfaatini himoya etishi mumkin? Aynan, shu savol korporativ boshqaruv tizimida ritorik xarakterga ega bo'lgan muhim masaladir. Hozirgi vaqtda korporatsiya faoliyati tajribasi - agentlik muammosini mulkdorlar foydasiga hal qilishning ichki va tashqi mexanizmlari haqida gapirishga imkon beradi. Nazoratning ichki mexanizmlari aksionerlarning menejerlar bilan bevosita, yoki korporatsiya direktorlar kengashi yordamida bilvosita munosabatlari asosida qurilgan.

Nazoratning tashqi mexanizmlari mulkdorlar bilan menejerlar o'rtasida turuvchi vositachilarning samarli faoliyat yuritishiga asoslanadi.

**1–jadval.**

**Agentlik muammosining asosiy turlari<sup>11</sup>**

<b>Muammo</b>	<b>Mulkdorlar</b>	<b>Menejerlar</b>
Korporatsiya menejerlari imiji	tejamkorlikka harakat qilishadilar	hashamatga intiladilar
investitsion gorizontni tanlash	Uzoq muddatli	qisqa muddatli
riskka munosabat	mulkdorlar yollanma boshqaruvchilar tomonidan qabul qilingan qarorlar bo'yicha riskni o'z bo'yniga olishadilar	menejerlar qarorlar qabul qilishib, uni amalga qo'llashadilar, ammo ko'pchilik holatlarda, ushbu qarorlar bo'yicha javobgar bo'lishmaydilar
foydani samarali ishlatish	foydalilik me'yoridan past bo'lmagan darajadagi dividend ko'rinishida, yoki kapitalizatsiya ko'rinishida	korporatsiyada o'z ta'sirini kengaytirish va o'z moddiy holatini kengaytirish ko'rinishida
korporatsiyaga bo'lgan munosabat	daromad manbalaridan biri sifatida	yagona daromad manbasi sifatida
korporatsiya ustidan nazoratni qo'lga olishga intilish	yirik paket egalarida - kuchliroq, kichik mulkdorlarda –pastroq	Kuchli
korporatsiya tomonidan amalga oshirilayotgan birlashuv va sotib olishga rag'bat	Daromadlilik me'yoridan past bo'lmagan miqdorda foyda olish	o'z ta'sir doirasini va shuhratini oshirish
korporatsiyani sotishga munosabat	agar aktsiyalari paketini ma'lum mukofot evaziga sotsa – ijobiy	odatda, salbiy
korporatsiya hisobidan o'z xarajatlarini amalga oshirishga intilish	past darajada, aktsionerlik kapitalida qanchalik ulushi yuqori bo'lsa, shuncha past	Yuqori

Ko'pchilik mutaxassislarning fikricha, tashqi vositachilar tizimiga davlat, moliya va mahsulot bozorlarini kiritish mumkin. Ushbu mexanizmlarni batafsil ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular: mehnat shartnomasini tuzish va menejerlar ish haqini to'lash tizimini tashkil etish;

<sup>11</sup> Breyli R., Mayers S. Printsipi korporativnix finansov.– M.: Olimp-Biznes, 1997. 720 s.;

- menejerlar faoliyatini nazorat etishni direktorlar kengashi zimmasiga yuklash.

Bosh direktorni ishga yollayotganda aktsionerlar tomonidan qo'llaniladigan dastlabki nazorat dastagi, bu – mehnat shartnomasidir. Nazariy jihatdan, mehnat shartnomasida boshqaruv faoliyatini boshqarishda yuzaga keladigan barcha holatlarda bosh direktorning ahloqiy me'yorlarini (qanday ish tutishi) o'z aksini topgan bo'lishi lozim. Mazkur nazariyaga ko'ra, bosh direktorning axloqiy jihatlari mehnat shartnomasidan farqlanganda, u avtomatik tarzda ishdan bo'shatiladi, shunday qilib, unda yanada sifatli ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Muammo shundaki, korporativ boshqaruv davomida ko'plab turli xo'jalik voqealari sodir bo'ladi, bunday voqealarni oldindan prognoz qilib bo'lmaydi yoki bunday vaziyatlarni prognoz qilish, undan keladigan samaradan qimmatga tushadi. Shuning uchun ham, asosiy e'tibor, bosh direktorning amaliyotda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan turli xil vaziyatlarda qanday harakat qilishini oldindan aniqlab qo'yishga harakat qilmasdan, balki menejerlar ish haqini tarkibiy tizimga solishga harakat qilinadi. Bunday operatsiyadan ko'zlangan asosiy maqsad, "aktsionerlar bilan menejerlarni bitta qayiqqa solib qo'yish", ya'ni top menejerlar uchun turli xil ko'rinishdagi pulli mukofotlar turkumini aniqlash orqali, korporatsiya menejerlari bilan aktsionerlarning manfaatlarini kesishishini ta'minlashdan iborat.

Klassik nazariyaga muvofiq, mulkdorlarning asosiy manfaati o'z kapitalini oshirishdan iborat bo'lib, bu – aktsiya qiymatining kursini oshishi hisobidan amalga oshiriladi. Menejerlarga bonus sifatida aktsiyalar sotib olish uchun opsiyonlarning taqdim etilishi, yaqin vaqtlargacha, mulkdorlar bilan menejerlarni manfaatini bog'laydigan dastak sifatida qaralar edi. Shunday kelib chiqqan holda, xuddi korporatsiya mulkdorlari kabi, menejerlarni pulli mukofotlarini korporatsiya aktsiyalarining kurs qiymati oshishi orqali shakllantirish, agentlik muammosini yumshatadi degan fikrga kelish mumkin. Ammo, amaliyot ushbu nazariyada mavjud jiddiy kamchiliklarni ko'rsatib berdi. Bu birinchidan, opsiyon imtiyozini hajmini begilash muammosi. Nazariy jihatdan olib qaralsa, kattaroq imtiyozlar menejerlar ishini rag'batlantiruvchi

samarali vosita hisoblanadi, ammo amaliyotda korporatsiya aktsiyalari kursi qiymatining sezilarsiz o'zgarishi ham korporatsiya menejerlari uchun yirik foyda olish imkonini beradi. Agar, imtiyoz aktsiyalar kursi qiymatining pasayishida opsiyonlarni qayta baholash imkoniyalarini o'z ichiga olsa, bunday chizma barcha risklarni inobatga olmay qo'yishiga olib keladi. Ikkinchi, va eng asosiy muammo – korporatsiya aktsiyalarining kursi qiymati bilan boshqaruv sifati o'rtasidagi bog'liqlikdir.

Korporatsiya aktsiyalari qiymatining o'sishi, korporatsiya boshqaruvining sifati bilan emas, balki, fond bozorining umumiy o'sishi natijasi bo'lish ham mumkin. Bunday holatda, opsiyonlar bo'yicha olinadigan mukofotlar korporatsiyani samarali boshqarishning natijasi bo'lmaydi, boshqa tomondan, fond bozorining umumiy pasayishi menejerlar daromadlarini pasayishiga ob'ektiv bo'lmagan tarzda ta'sir etadi. Korporativ boshqaruvning barcha ishtirokchilarining (taraflarning) umumiy maqsadi – qonun asosida foyda olish bo'lib, unga har bir taraf o'ziga hos, lekin bir-birdan farqli bo'lgan, vazifa va funktsiyalarni, huquq va majburiyatlarni bajarish orqali erishadi. 2-rasm

Korporativ manfaatlar o'zaro raqobatga asoslangan sabab-oqibatli bog'liqlikda bo'lgani sababli, ular tizimlilik va tartibliylikka bo'ysunadi.


Raqobatni mulk egalari o'rtasida, personal ichida, kompaniyaning boshqa sheriklari va h.k. manfaatdor taraflar o'rtasida ko'rish mumkni.

Bunda barcha taraflarga korporativ boshqaruv muhiti uchun teng imkoniyatlar beradi.

Tizimlilik va tartibliylik korporativ boshqaruv bir butun iqtisodiy-huquqiy tizim va uni o'rnatilgan korporativ huquq va madaniyat me'yorlari asosida tartibli va shaffof faoliyat ko'rsatishi bilan belgilanadi.

Odatda, aktsiya sotib olishga opsiyonlarni, mulkdorlar bilan menejerlarni bog'laydigan samarali dastak hisoblansada, korporativ amaliyotda quyidagilar bajarilishi lozim bo'lgan muhim yo'nalish hisoblanadi:

## Korporativ boshqaruvda manfaatdor sub'ektlar<sup>12</sup>



- birinchidan, menejerlarning aktsiyalarni sotib olishga opsiya ko'rinishidagi bonuslariga turli darajadagi chegaralar o'rnatilishi lozim;
- ikkinchidan, korporatsiya menejerlarining faoliyati ustidan nazoratning mavjudligi va shunday nazorat sifatida, korporativ boshqaruv tizimiga korporatsiyaning direktorlar kengashi yuzaga chiqishi.

Korporatsiya menejmentining faoliyatini ichki nazorat qilishning tan olingan mexanizmi sifatida, aktsionerlar tomonidan ular manfaatlarini himoya qilish uchun, ma'lum nazorat vakolatlariga ega bo'lgan agentlarning jalb etilishi amalga oshiriladi. Ular korporatsiya xodimlari bo'lishmaydilar, shuning uchun ham ularni "tashqi direktorlar", yoki "mustaqil direktorlar", yoki "outsayderlar" deb ataydilar.

Direktorlar kengashi a'zolari operativ boshqaruvga bevosita bog'liq bo'lmaydilar va shu orqali mulkdorlar manfaatlarini himoya qiladilar, deb qabul qilinadi.

<sup>12</sup> Breyli R., Mayers S. Printsipi korporativnix finansov.– M.: Olimp-Biznes, 1997. 391 s.;

Xulosa qilib shuni alohida ta’kidlash lozimki, korporativ boshqaruv tizimi murakkab tizim bo’lib, uni samarali ishlashini ta’minlash, korporativ boshqaruv oldida echimini kutayotgan muhim masalalaridan biridir.

### **3. “O’zbekengilsanoat” uyushmasi korxonalarida korporativ boshqaruvning joriy holati tahlili**

Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan mamlakatimiz iqtisodida keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu islohotlar samarasi o’laroq engil sanoat etakchi ishlab chiqarish sohalari qatoridan mustahkam o’rin egalladi. Ularda ilg’or texnologiyalardan foydalanilmoqda, o’nlab yuqori sifatli va raqobatdardosh mahsulot turlarini ishlab chiqarish o’zlashtirilmoqda.

Sohani rivojlantirish yo’lida olib borilayotgan ishlar o’z natijasini bermoqda: binobarin, 2010 yilning birinchi yarim yilligi yakunlariga ko’ra to’qimachilik sanoati korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish bo’yicha eng yuqori ko’rsatkichlarga erishilgan.

Islohotlar natijasida mazkur sohaning asosiy vazifalari bajarilmoqda - mahalliy xom-ashyoni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo’shimcha qiymatli sifatli tovarlar ishlab chiqarish yo’lga qo’yilmoqda, ishlab chiqarish hajmi va assortimenti ortmoqda, mahsulot sifati ko’tarilmoqda. Bugun respublika qishloq xo’jaligi kompleksi mahsulotidan barcha asosiy turdagi tovarlar ishlab chiqarishda foydalanilmoqda.

Mamlakatimizda sohaning etakchilaridan sanalgan “O’zbekengilsanoat” davlat aktsiyadorlik kompaniyasi to’qimachilik, tikuvchilik, trikotaj va chinni ishlab chiqarish sohasida engil sanoatning 100 dan ortiq korxonalarini birlashtiradi. Engil sanoat O’zbekiston Respublikasi uchun strategik ahamiyatga ega. Hozirgi davrda yiliga 250 ming tonna paxta tolasini qayta ishlash quvvatiga ega bo’lgan holda “O’zbekengilsanoat” DAK korxonalarini har yili 400 mln. AQSh dollaridan ortiq miqdorda mahsulot ishlab chiqarmoqdalar.

Kompaniya tarkibiga 50 to'qimachilik korxonalar kiradi. Ular respublika engil sanoatining asosini tashkil etadilar. Mazkur korxonalar paxtali, jun ip, sur va tayyor ip gazlama, sur va tayyor jun gazlama, paxta momig'i, gilam va gilam mahsulotlari, tikuvchilik paxtali ipi, shuningdek to'qilmagan materallar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan.

Kompaniya korxonalarining paxtali ip ishlab chiqarish bo'yicha yillik quvvati 213 ming tonnadan ortiqni tashkil etadi va yiliga 255 ming tonna paxta tolasi va 7500 tonna jun kalavasini qayta ishlash imkonini beradi. Sur paxtali gazlamalar ishlab chiqarish bo'yicha yillik ishlab chiqarish quvvati 500 mln.pogon metrni, gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish quvvati deyarli 2.0 mln. kvadrat metrni, tikuvchilik iplari ishlab chiqarish quvvati 223 mln.shartli g'altakni, paxta momig'i ishlab chiqarish quvvati deyarli 4500 tonnani tashkil etadi.

To'qimachilik sohasini o'rganish bo'yicha tahlillarga ko'ra, soha rivojining eng asosiy strategik yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- chet el investitsiyalarini jalb qilgan holda yangi korxonalar tashkil etish;
- yangi texnologiyalarni tadbiq etish, yangi xom-ashyo turlari va gazlamalarga, gilamlarga badiiy rangli bezak berish;
- material, mehnat sarfini kamaytirish va kompyuterlashtirish, avtomatlashtirish tizimini tadbiq qilish.

Xususan, 2010 yilning birinchi olti oyi davomida "O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiruvchi 200 dan ortiq korxonalar jami 486,5 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqardilar, bu 2009 yilga nisbatan 139 foiz ko'p degani. O'umladan, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish sur'ati ham oshdi va 140 foizni tashkil etdi. 96 ming tonnadan ortiq ip, 50 million kvadrat metrdan ortiq tayyor ip gazlama, 12 million kvadrat metrdan ortiq to'qilmaydigan gazlama, 12 ming tonnadan ortiq trikotaj gazlama, 4,37 ming tonna paxta momig'i ishlab chiqarildi. Ta'kidlash joizki, birinchi yarim yillikda tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham ortdi – 40 million dona trikotaj va 6,7 million juft paypoq mahsulotlari, shuningdek 4,34 milliard so'mlik tikuvchilik mahsulotlari ishlab

chiqarildi. Tadqiqot natijalariga yana bir nazar tashlasak, asosiy turlar bo'yicha ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshgani diqqatni tortadi. Masalan, trikotaj gazlama va paypoq mahsuloti o'tgan yilga nisbatan ikki barobardan ortiq ko'p ishlab chiqarildi.

Engil sanoatning ipakchilik sohasi ham rivojlanib bormoqda. Prezidentimizning "Respublika ipakchilik sohasini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bajarilishi bois katta investitsiyalar jalb qilindi, mehnat samaradorligi oshdi. Buning samarasi o'laroq birinchi yarim yillikda 338,6 tonna ipak tolasi olingan bo'lib, uni qayta ishlash natijasida 110 ming kvadrat metr ipak gazlama ishlab chiqarildi, bu o'tgan yilga nisbatan 135 foizni tashkil etadi.

"O'zbekengilsanoat" DAK korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotga chet elda ehtiyoj katta. Eksport aloqalari nafaqat qo'shni mamlakatlar, balki uzoq xorij davlatlari bilan ham o'rnatilgan. "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" belgisi ostidagi mahsulot Turkiya, Koreya Respublikasi, qator Evropa mamlakatlari bozorlariga etkazib berilmoqda. 2010 yilning olti oyi mobaynida eksport hajmi 280 million dollarga etdi, bu esa 2009 yilning mazkur davriga nisbatan 160,7 foizni tashkil etadi.

Bu natijalar sohani modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash choralari bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda engil sanoat korxonalarida eng yangi texnika bilan ta'minlanmoqda, ilg'or texnologiyalar tadbiq qilinmoqda, ishlab chiqarish liniyalari yangilanmoqda. Bu maqsadlarga birinchi yarim yillikda kapital qo'yilmalarning aksariyat qismi yo'naltirilgan bo'lib, ularning umumiy hajmi 87,3 mlrd. so'mni, shu jumladan xorijiy investitsiyalar 32,7 mln. doll. tashkil etdi.

Xorijiy kapitalning jalb qilinishi yangi ob'ektlar qurib, ishga tushirilishiga sabab bo'lmoqda. O'riy yilda umumiy qiymati 64.19 mln.dollarni tashkil etgan 12 shunday loyiha amalga oshirildi. Ular sohada ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini keskin oshiradilar. Masalan, poytaxtda ishga tushirilgan "Toshbrunenteks" qo'shma korxonasining quvvati bir yilda olti ming tonna ip ishlab chiqarishga mo'ljallangan, "Nafis libos" MChO' (Guliston) bir yilda 1,5 mln. dona tayyor mahsulot ishlab chiqaradi, Farg'ona viloyatida ishga tushirilgan "Orshax ev

tekstil” chet el korxonasi esa, bir yilda 7,36 mln. dona paypoq ishlab chiqarishga mo’ljallangan.

Tashkil etilgan korxonalar umumiy miqdorda keng assortimentda 23 ming tonna ip va 5,76 mln. tayyor tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqaradilar. Yangi eksport ob’ektlarining eksport salohiyati 41,84 mln. dollarni tashkil etadi. Bundan tashqari, bu korxonalardan qariyb ikki ming kishi ish bilan ta’minlangan.

Amaldagi korxonalarni modernizatsiya qilish va yangilarini tashkil etish natijasida yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo’lga qo’yiladi, importga qaramlik kamayadi. So’nggi vaqtda erkaklar ko’ylagi, jinsili, kostyumli, gabardinli va turli sintetik hamda aralashma gazlamalar, melanj (olachipor) ip ishlab chiqarish o’zlashtirildi. “O’zbekengilsanoat” DAK korxonalari boshqa soha korxonalari bilan sanoat hamkorligi doirasida importni kamaytirish bo’yicha birgalikda harakat qilmoqdalar. Masalan, kimyo sanoati engil sanoat uchun zarur bo’lgan turli materiallarni etkazib bermoqda.

To’qimachilarning mahsulotlari ham noan’anaviy sohalarda qo’llanilmoqda. Xususan, filtrlaydigan ip gazlama metallurgiya korxonalari va qazilma xom ashyolarni qazib olish sanoatidagi ishlab chiqarish jarayonida zarur bo’lgan materialdir. O’riy yilning birinchi yarim yilligida “O’zbekengilsanoat” davlat aktsiyadorlik kompaniyasida 6,61 mlrd. so’mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida rivojlanish yo’lida katta turtki olgan engil sanoat ulkan natijalarga erishib, respublika iqtisodiga munosib hissa qo’shmoqda.

“O’zbekengilsanoat” davlat aktsiyadorlik kompaniyasining faoliyat yuritayotgan korxonalari modernizatsiya qilinishi, yangilari ishga tushirilishi hamda bu jarayonga mahalliy va xorijiy investorlar keng jalb qilinishi natijasida paxtani qayta ishlash sanoatida tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish hajmi yil sayin ortib bormoqda. Masalan, 2009 yilning birinchi yarmida korxonalarda ishlab chiqarilgan 168.3 mln.dollar hajmidagi mahsulot chet elga sotildi, 2010 yilning shu davrida esa, sotish hajmi 280.6 mln. dollarni tashkil etdi.

Raqobatbardosh mahsulotni ichki va tashqi bozorga chiqarish hajmi oshishi, kompaniya tarkibida yangi korxonalar ishga tushirilishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. O'riy yilning birinchi yarmida 2600 dan ziyod yangi ish o'rinlari yaratilib, ulardan 800 tasi kasanachilik asosida ishlab turibdi. Davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilar har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi, ularga imtiyoz va imkoniyatlar yaratilishi korxonalar barqaror ishlashiga yordam bermoqda. Hozirda "O'zbekengilsanoat" DAK tizimida 200 ga yaqin korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. O'riy yilning o'tgan davrida bu ko'rsatkich yana 12 ga ortdi. Ulardan biri – Toshkent viloyatining Zangiota tumanida ishga tushirilgan "Elnur end Ruslan tekstil" korxonasi. Hozirda korxonada yuz turdan ziyod bolalarning mavsumiy kiyimlari ishlab chiqarilmoqda.

O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, mahalliy xom–ashyo asosida sifatli hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholi bandligi darajasini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Buni "O'zbekengilsanoat" davlat aktsiyadorlik kompaniyasi tizimidagi korxonalar misolida ko'rish mumkin.


To'qimachilik sanoati O'zbekiston sanoatining eng jadal sur'atlarda rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Soha korxonalari ip, kalava, xom va tayyor matolar ishlab chiqaradi. Trikotaj va tikuvchilik mahsuloti: kiyim-kechak va maishiy buyumlar ishlab chiqarish rivojlangan. O'zbekiston uchun iqtisodiyotning mazkur sohasini rivojlantirishning muhimligi, birinchi navbatda, o'z xom-ashyo (paxta, shoyi, jun) bazasining mavjudligi, shuningdek, to'qimachilik sanoatining nisbatan yuqori mehnat sig'imliligi bilan bog'liq. Bu esa, bandlik va aholini turmush darajasini oshirish masalalarini echish nuqtai nazaridar muhimdir.

O'ahon tajribasi ko'rsatishicha, qulay sharoitlar mavjud bo'lgan taqdirda, to'qimachilik sanoati rivojlanishi jo'shqin tusga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, xoma-shyoni chuqur qayta ishlash hisobiga qo'shilgan qiymatning katta miqdorda o'sishi ro'y beradi, natijada aholi, korxonalar va davlatning daromadlarini oshirish, shuningdek, eksportni yuqori o'sish sur'atlarini hamda import (tayyor tikuvchilik buyumlari) hajmi qisqartirilishi ta'minlanadi. Mamlakat

hukumati yaqin istiqbolda paxta tolasini qayta ishlashni uni ishlab chiqarish hajmining 50 foizigacha etkazish vazifasini qo'ygani bejiz emas.<sup>13</sup> Ilmiy izlanish natijalari sohada qator jiddiy muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi. Mazkur muammolar paxta tolasini etarli darajada chuqur qayta ishlanmasligi bilan, shuningdek, ishlab chiqarishning yakuniy mahsuloti – matolar va tikuv buyumlarining past raqobatdoshligi bilan bog'liq. Eksportning asosiy mahsuloti, avvalgidek, paxta tolasini va paxta ipi hisoblanadi, bu esa, tashqi bozorlarga past qo'shilgan qiymatga ega mahsulot etkazib berishni anglatadi. Qayd etilgan shart-sharoitlar mahalliy to'qimachilik sanoati raqobatdoshligini narx va narxdan xoli omillarining tahlilini hamda uni oshirishga qaratilgan davlat siyosatining choralari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishning dolzarbligini asoslaydi. To'qimachilik sohasi (O'zbekistonda qabul qilingan iqtisodiyot sohalari tasnifiga muvofiq, to'qimachilik va tikuvchilik sanoatini o'z ichiga olgan) – mamlakat iqtisodiyotining dinamik rivojlanayotgan sohasidir. Bundan quyidagi ma'lumotlar dalolat beradi:

### 3-rasm

**«O'zbekengilsanoat» DAK korxonalarini bo'yicha ishlab chiqarish hajmining o'sishi<sup>14</sup>. 2006-2011 yy.**



<sup>13</sup> <http://gov.solutions.uz/ru/business/invest/90>.


<sup>14</sup> Manbalar: «O'zbekengilsanoat» DAK ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2006 dan 2011 yilga qadar «O'zbekengilsanoat» DAK mahsuloti eksportining hajmi 76,1 foizga o'sgan: 213,0 mln. AQSh doll.dan 375,3 mln. AQSh doll.gacha o'sgan.<sup>15</sup> 2006-2011 yillarda to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish xajmi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 1,5 barobar, tikuvchilik sanoatida esa, 2 barobar o'sish kuzatilganligini qayd etishimiz mumkin. «O'zbekengilsanoat» DAK korxonolari o'z tarkibida soha mahsulotining katta qismini ishlab chiqaruvchi korxonalarni birlashtirgan tashkilot korxonolari bo'yicha 2006-2011 yillar mobaynida ishlab chiqarish hajmi ikki barobar o'sganligini qayd etish mumkin. Mazkur jarayonlar, aynan to'qimachilik ishlab chiqarishini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim va bu tikuvchilik sanoatini rivojlantirish uchun rag'bat bo'lib hisoblanadi.

---

<sup>15</sup> Davlat statistika qo'mitasining to'qimachilik korxonolari eksportiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlari «O'zbekengilsanoat» DAK ma'lumotlaridan katta farq qiladi va tahlilda qo'llanilishi mumkin emas. DAK vakillarining fikricha, ularning korxonolari ulushiga soha eksportining taxminan 80 foizi to'g'ri keladi.

**«O'zbekengilsanoat» DAK korxonalari eksporti va importi<sup>16</sup>. (mln. AQSh doll.)**



Shuning bilan birga, to'qimachilik sohasining salohiyatidan etarli darajada foydalanilmaydi:

1. To'qimachilik va tikuvchilik sanoatida ishlab chiqarish hajmi pul ko'rinishida so'nggi 5 yil davomida o'sganiga qaramasdan, mazkur sektorning iqtisodiyotdagi ulushi 2-2,5 foizni tashkil etadi. Bu o'z xomashyo bazasiga ega bo'lgan mamlakat uchun ancha past ko'rsatkich hisoblanadi.

2. O'zbekiston to'qimachilik sanoatining o'ziga xos xususiyati bo'lib, sohada to'qimachilik mahsulotini birlamchi ishlab chiqarish ustunligi va xomashyoni qayta ishlash darajasi pastligi hisoblanadi.

Xom-ashyoni chuqur qayta ishlash kerakligi va O'zbekiston paxtani ishlab chiqarish bo'yicha jahonda 5-o'rinni egallashiga qaramasdan, mamlakatda 2008-2010 yy. da ishlab chiqariladigan paxta hajmining atigi 20,4-21,5 foizi iste'mol qilingan (paxta zahirasi bo'yicha ma'lumot yo'qligi sababli, mazkur ko'rsatkich paxtani ishlab chiqarish hajmi va uning eksporti o'rtasidagi farq sifatida hisoblandi).<sup>17</sup> 2008 y. da mazkur raqam 39,6 foizgacha o'sdi. 2009 y. da esa, 28,2 foizgacha qisqardi. Biroq, 2008-2009 yy. da eksportga sotilmaydigan paxtaning ulushi o'sishi iste'mol qilish hajmlarining o'sishi bilan ham, jahon iqtisodiy inqirozi tufayli, paydo bo'lgan zaxiralar o'sishi bilan ham, izohlanishi mumkin.<sup>18</sup>

<sup>16</sup> Manba: «O'zbekengilsanoat» DAK ma'lumotlari.

<sup>17</sup> O'zR Davlat statistika qo'mitasining paxta tolasini ishlab chiqarish va eksport qilish hajmlari haqidagi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

<sup>18</sup> Paxta tolasini zaxiralarining hajmi bo'yicha ma'lumot ololmadik.

O'zbekistonning hisobiga umumjahon paxta iste'moli hajmining atigi 0,8 foizi to'g'ri keladi va bu sohani rivojlantirish uchun juda katta salohiyat mavjudligidan dalolat beradi.<sup>19</sup>

Natijada, jahon paxta tolasi ishlab chiqarishida O'zbekistonning ulushi 4 foizni tashkil etishiga qaramasdan, jahon paxta ipi ishlab chiqarishida uning ulushi 0,7 foizga teng.<sup>20</sup>

Mato va polotno, tayyor trikotaj va tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarishda O'zbekistonning ulushi bundan ham kamdir, chunki mamlakatda ishlab chiqariladigan iplarning atigi 50 foizi ichki iste'mol uchun qoldiriladi.<sup>21</sup>

“Qo'shilgan qiymatni o'stirish zanjiri”ning eng katta farqi matolar ishlab chiqarishda mavjud. Bunda, 2006 y. dan 2011 y. ga qadar, ipli matolar ishlab chiqarish 2,6 barobar qisqartirildi; shu bilan birga, trikotaj matosi ishlab chiqarish (nisbatan kam miqdorda qo'shilgan qiymat o'sishini o'z ichiga olgan) qayd etilgan davrda 2,3 barobar o'sgan. Bu ko'p jihatdan shu bilan bog'langanki, investitsiyalarning ko'p qismi, xatarning nisbatan kamligi va talab etiladigan kapital qo'yilmalar hajmi bundan ko'ra pastligi bois, asosan, trikotaj matosini ishlab chiqarish uchun yo'naltirilgan edi. Shunday qilib, aynan to'qimachilik ishlab chiqarishini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim va bu tikuvchilik sanoatini rivojlantirish uchun rag'bat bo'lib hisoblanadi.

## 2–jadval.

### 2006-2011 yy.da ip gazlamalari va polotno ishlab chiqarish<sup>22</sup>

Ko'rsatgichlar	2006	2007	2008	2009	2010	2011
Ip gazlamalar ishlab chiqarish, (ming kv.m)	346 169	258 347	176 048	158 638	126103	130783

<sup>19</sup> United States Department of Agriculture, 2009 oktyabr.

<sup>20</sup> Quyidagilar asosida hisoblangan:

[http://www.aptna.org.pk/Pak\\_Textile\\_Statistics/gpyarn.asp](http://www.aptna.org.pk/Pak_Textile_Statistics/gpyarn.asp) hamda O'zR Davstatqo'm ma'lumotlari asosida.

<sup>21</sup> O'zR Davstatqo'm ip matosini ishlab chiqarish va eksport qilish hajmlari haqidagi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

<sup>22</sup> Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Trikotaj polotnosi ishlab chiqarish, (tn.)	6170	7 260	8 454	10437	11387	14 566
--	------	-------	-------	-------	-------	--------

Bunga qaramasdan, to'qimachilik sanoatining daromadlarini ancha oshirish mumkin. Buning uchun xomashyoni qayta ishlashni chuqurlashtirish va tayyor buyumlarni sotish kerak.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sohasining paxtadan ishlab chiqarish zanjirida tayyor trikotaj va tikuvchilik buyumlarini tikish sohasida eng katta qo'shimcha qiymat o'sishi mavjud. Bunda, agar ichki bozorda 1 kg paxta tolasining narxi 1,4 AQSh doll. ga teng bo'lsa, undan ishlab chiqarilgan tikuvchilik buyumlari – o'rtacha hisob 16 AQSh doll. ga yaqinni, trikotaj maxsuloti esa – taxminan 5,4 AQSh doll. ni tashkil etadi.

Xom-ashyoni ishlash darajasi pastligi natijasida, O'zbekiston to'qimachilik mahsulotining eksporti xalqaro darajada katta ahamiyatga ega emas. Bundan xalqaro solishtirishlar ham dalolat beradi. Agarda 2008 y.da O'zbekiston to'qimachilik sanoati eksportining hajmi 0,4-0,5 mlrd. AQSh doll. ni tashkil etgan bo'lsa, Xitoy 185,2 mlrd. AQSh doll. miqdorida to'qimachilik mahsulotini eksport qilgan, Turkiya – na 23,6 mlrd. doll., Hindiston – na 22,4 mlrd. doll., Bangladesh esa – 12,1 mlrd. doll. miqdorida mahsulot eksport qilgan.

Paxta tolasining (jahon bozoridagi sotuvlar hajmining 12,2 foizi<sup>23</sup>) va paxta ipining (jahon bozoridagi sotuvlarnig 10-15 foizi<sup>24</sup>), ya'ni qo'shilgan qiymat ulushi past bo'lgan mahsulotning, jahonda etakchi eksport qiluvchisi hisoblangani holatida, O'zbekiston, mohiyatiga ko'ra, bundan ko'ra qimmatli mahsulotni ishlab chiqarish va eksport qilish imkoniyatidan o'zini mahrum etadi va mazkur mahsulotning sotilishi mamalakatga eksport tushumlarini katta miqdorda oshirish imkonini bergan bo'lar edi. Bundan tashqari, bundan ko'ra ko'p hajmlarda o'z matolarini, trikotaj va tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarish shunga o'xshash

<sup>23</sup> United States Department of Agriculture, 2009 oktyabr.

<sup>24</sup> Quyidagilar asosida hisoblangan: [http://www.apmta.org/pak/Textile\\_Statistics/cwecy.asp](http://www.apmta.org/pak/Textile_Statistics/cwecy.asp) hamda O'zR Davlatqo'm ma'lumotlari asosida.

mahsulotni importini qisqartirish hisobiga, xorijiy valyutani tejash uchun imkon berar edi.

Shunga qaramasdan, jahon tajribasi ko'rsatishicha, o'z raqobat ustunliklaridan foydalanib va qulay investitsiya iqlimini tashkil etgan holda, nisbatan qisqa muddat davomida to'qimachilik sanoatining ancha rivojlanishiga erishish mumkin. Bunda, 1954-1983 yy. da Xitoyda kiyimlarni kuponli taqsimlash tizimi amal qilgan edi. Biroq, 1978 y. dan boshlab o'tkazilgan keng miqyosli islohotlar kiyimlar ishlab chiqarish va eksport qilish hajmlarini ancha o'stirishga yordam berdi. Agarda 1978 y. da Xitoydan kiyimlar eksporti 0,7 mlrd. AQSh doll. ni tashkil etgan bo'lsa, 1985 y. da – 2,1, 1990 y. da – 6,8, 1995 y. da – 24,0, 2008 y. da – 185,2 mlrd. AQSh doll. ni tashkil etgan.

Bangladeshda tayyor kiyimlar eksportidan daromadlar 1980-81 yy. da 3,3 mln. AQSh doll. dan, 1991-92 yy.da 1,2 mlrd. AQSh doll. gacha va 2008 y. da 12,1 mlrd. AQSh doll. gacha o'sdi. Hindistonda to'qimachilik sanoati eksporti 1990/91 yy.da 5,1 mlrd. AQSh doll. ni, 1995/96 yy. da – 8,4 mlrd. va 2008 y.da. – 22,4 mlrd. ni tashkil etgan. Turkiya to'qimachilik sanoati eksportining hajmi 1979 y. da 595 mln. AQSh doll.dan, 2008 y. da 23,6 mlrd. AQSh doll. gacha o'sdi.

Mazkur misollar O'zbekistonda to'qimachilik va tikuvchilik sanoatini rivojlantirish uchun juda katta salohiyat mavjudligidan dalolat beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, paxta eksportining 100 ming tonnaga qisqartirilishi, bir vaqtning o'zida, valyuta tushumining 140 mln. doll. ga qisqarishiga (2008 y. narxlarida) olib keladi.

Agarda ushbu paxta xajmi va undan ishlab chiqarilgan ipni mamlakat ichida qoldirilsa, taxminan 400 mln. AQSh doll. miqdorida matolar va polotno ishlab chiqarish mumkin. Agarda ushbu mato va polotnoning 50 foizi eksport qilinib, 50 foizi esa ichki bozor uchun qoldirilsa, bu holda 532,4 mln. AQSh doll. miqdorida tikuvchilik va trikotaj buyumlari ishlab chiqarish mumkin. Agarda tikuvchilik va trikotaj korxonalarini o'z mahsulotining atigi 20 foizini eksport qilsalar (hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan nisbat), bu holda ularning eksport tushumi 306,3 mln. AQSh doll. ni tashkil etadi. Qolgan (625,7 mln. doll. lik) mahsulot ichki bozorda

sotiladi. Bu importni tegishli summaga, demak valyuta xarajatlarini ham mazkur summaga qisqartirish uchun imkon beradi. Aslida valyuta mablag'lari tejalishi qayd etilgan 625,7 mln. doll. dan yuqori bo'ladi, chunki import kiyim-kechaklar mahalliy kiyimlardan qimmatdir, hech bo'lmasa transport xarajatlari va bojxona to'lovlari mavjudligi hisobiga.

Bundan tashqari, tayyor buyumlar ishlab chiqarilgani bois, davlat byudjeti mazkur mahsulot ishlab chiqaruvchilaridan olingan soliqlar ko'rinishida mablag'lar, shuningdek savdo tashkilotlaridan soliq tushumlarini oladi. Qo'shimcha tushumlar umumiy summasi 166,5 mln.AQSh doll. ni tashkil etadi.

Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, qo'yidagilarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq:

- tikuvchilik sanoati rivojlangani sari, uning ishlab chiqarish hajmlarida eksportning ulushi muqarrar o'sib boradi. O'ahon tajribasi ko'rsatishicha, iqtisodiyotni mazkur sohasi eksport tushumlarining asosiy manbasiga aylanishga qodir.

- tikuvchilik, to'qimachilik va trikotaj sanoatining rivojlanishi aholi bandligi va daromadlari o'sishiga yordam beradi.

- mamlakat ichida ishlab chiqarish va tovar aylanmasi o'sishi aholi daromadlarining o'sishiga va iqtisodiyotning boshqa sohalari rivojlanishiga ko'maklashadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, korxonalarni modernizatsiya qilish va qayta jihozlash hisobiga sohaning barqaror va izchil rivojlanishini, tayyor raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishni rag'batlantirish, uning eksportini ko'paytirish, shuningdek yangi ish o'rinlari yaratilishini ta'minlash maqsadida 2006-2008 yillarga mo'ljallangan korxonalarni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash Dasturi qabul qilingan. 2006-2008 yillarga mo'ljallangan to'qimachilik sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash Dasturiga kiritilgan korxonalar texnologik va yordamchi qurilmalar, texnologik uskunalar va ehtiyot qismlar uchun bojxona to'lovlarini

to'lashdan (bojxona xujjatlarini rasmiylashtirish uchun yig'implardan tashqari) ozod etiladilar.

Yangi investitsion loyihalar amalga oshirilishi natijasida yiliga paxtali ip ishlab chiqarish 170,8 ming tonnaga, ip gazlamalar ishlab chiqarish 35,7 pogon metrغا, trikotaj gazmala ishlab chiqarish 39.8 ming tonnaga, tayyor tikuvchilik-trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish 67.15 mln.donaga, paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish 58,6 mln.juftga ortdi. 2009 yil boshiga kelib mahsulot eksporti 382,9 mln.dollarga ortdi, 21 950 yangi ish o'rinlari yaratildi.

Engil sanoatda investitsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston qonunchiligida qator imtiyoz va chegirmalar ko'zda tutilgan, jumladan:

- Tayyor kiyim (tikuvchilik, trikotaj va charm mahsulot), paypoq va poyabzal ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalar byudjetga barcha turdagi soliq va yig'implar to'lashdan ozod etiladilar, qo'shimcha qiymat solig'i bundan mustasno;

- Korxonalar o'z ehtiyoji uchun olib kirilayotgan texnologik va yordamchi qurilmalar, texnologik uskunalar va ehtiyot qismlar uchun bojxona to'lovlarini to'lashdan (bojxona xujjatlarini rasmiylashtirish uchun yig'implardan tashqari) ozod etiladilar.

Shuni aytish joizki, ozod bo'lgan mablag'lar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga, yangi turdagi tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirishga, o'z aylanma mablag'ini to'ldirishga, ishchi xodimlar mehnatini rag'batlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Sohada Germaniya, Italiya, O'anubiy Koreya, Turkiya, AQSh, Hindiston, Buyuk Yuritaniya, Avstriya va boshqa davlatlar investorlari ishtirokida tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, respublika ipakchilik sohasini rivojlantirish Dasturiga muvofiq korxonalar quyidagilardan ozod etilgan:

- 2010 yil 1 yanvariga qadar qo'shimcha qiymat solig'i to'lashdan: pillachilik zavodlari- o'zi ishlab chiqargan ipak qurti urug'ini pilla ishlab

chiqaruvchi xo'jaliklarga to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha yoki pilla tayyorlovchi tashkilotlar orqali sotganda; pilla ishlab chiqarish va birlamchi qayta ishlash korxonalarini – quruq pillani respublika ipakchilik sohasining pilla qayta ishlash korxonalariga sotganda;

- 2008 yil 1 yanvarga qadar bojxona to'lovlarini to'lashdan (bojxonada rasmiylashtirish uchun yig'implardan tashqari) –respublikada ishlab chiqarilmaydigan va “O'zbekengilsanoat” DAK korxonalarini tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan xom ashyo, bo'yoqlar, ximikatlari va yordamchi materiallar uchun.

To'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish maqsadida 26 korxonaning jami miqdori 302 mln.AQSh dollarini tashkil etuvchi investitsion takliflari joylashtirilgan. “Elteks” AO' (Qoraqalpog'iston Respublikasi), “Buxoroteks” AO'ning Buxoro viloyatining Romiton, O'ondor tumanlaridagi filiallari, "Plasteks" xususiy korxonasi (Toshkent viloyati), “Qo'qonteks” AO' (Farg'ona viloyati) va boshqalar mazkur korxonalar jumlasidan.

Takliflarning har biri bo'yicha loyiha qiymati, jalb qilinayotgan investitsiyalar tashqi manbai hajmi, rentabellikning ichki me'yorlari, loyihaga sarflangan xarajatlarni qoplanish muddati ko'rsatkichlarini asoslab beruvchi dastlabki texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar tayyor, tayyor mahsulotni sotish bozori bo'yicha marketing ilova qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 10 iyuldagi PQ-407-sonli Qaroriga muvofiq davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish taklif etilayotgan 14 korxonalar to'g'risida ma'lumot joylashtirilgan.

Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasining ma'lumotlari asosida mulk majmuasi sifatida sotuvga qo'yilgan 9 korxonalar to'g'risida ma'lumot tayyorlangan.

Andijon ip gazlama kombinati (“Bobur” AO'), “Baliqchitekstil” OAO' (Andijon viloyati), “Kosonsoy tekstil” SAP (Namangan viloyati), “Bog'otteks” OAO', “Ulug'bek” OAO' (Farg'ona viloyati) va boshqalar shular jumlasidan.

Yuqoridagi tahlil ma'lumotlaridan xulosa qilishimiz mumkinki, "O'zbekengilsanoat" korxonolari sohasining mamlakat sanoatidagi ulushi salmoqli ekanligini, mamlakat eksportida paxta tolasining ulushi yildan yilga kamayishiga qaramasdan etakchi o'rinda turganligidan va respublikamizga valyuta tushumida muhim ahamiyatga ekanligidan dalolat beradi.

#### **4. Korporativ boshqaruv mexanizmidagi zamonaviy muammolar va ularni bartaraf etishning xorijiy tajribalari**

Korporativ boshqaruv tizimini qurishning xorij tajribasi bo'yicha quyidagilarni aytish mumkin. Halqaro miqyosda qonunlarning va korporativ tashkilotlar shakllarining konvergentsiyasi ro'y berdi. Ma'lumki, hozirgi paytda korporativ boshqaruv tizimining o'ziga hos bir-biridan ajralib turadigan uch turi farqlantiriladi.

Asosiy modellar – ingliz-amerika (ingliz-sakson modeli), german va yapon modellari ichki boshqaruv tuzilmalarini cheksiz xilma-xilligining vakillaridir.

Amerika iqtisodiy-ijtimoiy modeli (Angliya, AQSh) – ihtiyoriy fuqaroga shaxsiy boylikka erishish imkoniyatini ta'minlash («autsayderlik», ya'ni asosan kompaniya faoliyatiga aloqador bo'lmagan guruh tomonidan kompaniya faoliyatini nazoratiga asoslangan).

Kontinental huquqiy tizimda korporatsiya tushunchasiga aksiyadorlik jamiyatlaridan tashqari boshqa yuridik shaxslar, masalan turli shirkatlar (to'liq, kommandit), xo'jalik jamiyatlari (cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli), xo'jalik birlashmalari (kontsernlar, uyushmalar, xoldinglar va boshqalar), ishlab chiqarish va iste'mol kooperativlari kiritilgan.

Yaponiya korporativ boshqaruv tizimi mahalliy biznes madaniyatini akslantirib, unda o'zaro ishonchga asoslangan uzoq muddatli shaxsiy munosabatlar, shartnomalar va ehtimoliy sud ajrimlariga asoslangan ishbilarmonlik munosabatlariga nisbatan kattaroq rol o'ynaydi. Oqibatda, qonunchilik va davlat tomonidan tartibga solish korporativ boshqaruvda kamroq ahamiyatga ega.

Aktiyadorlik jamiyatlari bo'yicha qonunchilik va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarning tartibga solinishi amerika ta'sirini akslantiradi. Odatda aktiyadorlar xususiylashtirilgan korporatsiya ustidan nazoratni direktorlar kengashi orqali amalga oshiradilar. Kengashning vazifasi uchta – vakillik, siyosatning aniqlanishi va nazorat.

Dunyoda direktorlar kengashining ikki asosiy modeli mavjud – amerika (unitar) modeli va nemis (ikkilangan kengashlar tizimi) modeli Amerika qonunlariga binoan, kompaniya faoliyatini unitar direktorlar kengashi boshqaradi. Amerika qonunlari ijrochi direktorlar (ya'ni bir vaqtning o'zida kompaniya menejerlari bo'lgan direktorlar) va mustaqil direktorlar (kompaniyada o'z manfaatlariga ega bo'lmagan taklif etilgan shaxslar) orasida vazifalar taqsimotini ajratib ko'rsatmaydi, va faqat kompaniya faoliyati uchun kengashning umumiy javobgarligini aniqlaydi. Kompaniya aktiyadorlari direktorlar kengashidagi mazkur ikki toyifadagi direktorlar orasida vazifalar taqsimoti bo'yicha qaror qabul qilishi kerak. Ohirgi yigirma yilda paydo bo'lgan umumiy tendentsiya shundan iborat bo'ldiki, direktorlar kengashi umumiy tarkibida ijrochi direktorlarning vakilligi qisqarib, mustaqil direktorlar soni o'sib bordi.

Korporativ boshqaruvning amerika tizimi xususiyatlari AQShda aktiyadorlik mulkchilikning xususiyatlariga bevosita aloqador. Hususan, amerika korporatsiyalarida boshqa investorlarga ko'ra o'z ta'sirini kuchliroq o'tkaza oladigan yirik investorlarning yo'qligidir.

Amerika korporatsiyalarining aktiyadorlik kapitali kuchli darajada mayda paketlarga tarqab ketgan bo'lib, AQSh korporatsiyalari aksariyatining reestrlarida umumiy kapitalning bir foizidan oshig'iga egalik qiluvchi bironta hususiy shaxs yoki institutsional investor qayd qilinmagan.

Natijada aktiyadorlarning birorta guruhi direktorlar kengashiga a'zolik qilishga alohida da'vogar bo'la olmaydi. Ikkinchi muhim hususiyat shundaki, hususiy shaxslarga qarashli bo'lmagan aktiyalarning ko'pchiligi institutsional investorlar – nafaqa va o'zaro (paychilik) fondlari qo'lida jamlangandir.

Bu investorlar qo'llarida 50%dan oshiq kapitalni jamlar ekan, ko'proq moliyaviy menejer sifatida qatnashishga moyilroq bo'lib, direktorlar kengashi ishida qatnashishga intilmaydilar va odatda o'zlari yirik paketga egalik qilgan kompaniyalar uchun mulkchilik huquqidan kelib chiqadigan javobgarlikni o'z zimmalariga olishdan o'zlarini olib qochadilar.

Aktsiyadorlik kapitalaning sochilib ketgani bir mulkdordan ikkinchisiga aktsiyalarning o'tishini osonlashtiradi.

Mayda aktsiyador o'ziga qarashli aktsiyalarni sotish haqida qarorni nisbatan oson qabul qilishi mumkin, aksincha yirik aktsiyador uchun paketning sotilishi odatda strategik rejalarning o'zgarishidan dalolat berishi va sotiladigan aktsiyalarning kurs qiymati tushib ketishi oqibatida (bozordagi taklifning bir marttalik ortib ketishi sababli) yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Amerika qimmatli qog'ozlar bozorining yuqori samaraliligi va likvidligi bilan ajralib turishi mayda investorlar uchun paketlarni sotish ishini tez va texnik jihatdan oson amalga oshadigan qilib qo'yadi. Kompaniyalarning qo'shilishi, bir-birini yutishi, egallanib olinishi va sotib olinishlari amerika fond bozorining keng tarqalgan amaliyoti bo'lib, bu esa fond bozorini aktsiyadorlar tomonidan menejerlar faoliyatini nazorat qilishning juda samarali va oson amalga oshirishga imkon beruvchi qurol qilib qo'yadi.

Nemis kompaniyalarining aktsiyadorlik kapitali yirik aktsiyadorlar qo'lida kuchli darajada jamlangan. Natijada, amerikalik kasbdoshlariga nisbatan nemis mulkdorlari va ular kapitalini boshqaruvchi moliya institutlari o'z kompaniyalari bilan ancha yaqin ish munosabatlarida bo'ladilar. Oqibatda, ular mulkchilik huquqlaridan faol foydalanishdan va kompaniya faoliyati ustidan nazorat qilishga qatnashishdan ko'proq darajada manfaatdordirlar.

AQShdagi direktorlar kengashidan farqli o'laroq, nemis kompaniyasidagi boshqaruv ikki organdan iborat: faqat mustaqil direktorlardan tashkil topgan kuzatuv kengashi (direktorlar kengashi) va kompaniya menejmentidan iborat ijroiya kengashi.

**Korporativ boshqaruv modellarining qiyosiy hususiyatlari<sup>25</sup>**

<b>Modellarning hususiyatlari</b>	<b>Ingliz-Amerika modeli</b>	<b>Nemis modeli</b>	<b>Yapon modeli</b>
Ijtimoiy qadriyatlar tizimi	Shaxsiyatparastlik, Tanlov erkinligi	Ijtimoiy hamkorlik	Hamkorlik va ishonch
Mehnat jamoasining roli	Passiv	Faol	Faol qatnashuv
Moliyalashtirishning asosiy usuli	Fond bozori	Banklar	Banklar
Ahborotiy nomutanosiblik	Menejment	Menejment, «uy» banki	Bosh bank
Investitsiyalash muddatlari	Qisqa muddatli	Uzoq muddatli	Uzoq muddatli
Kapitalning qiymati	Yuqori	O'rta	Past
Kapital bozori	Yuqori likvidli	Likvidli	Nisbatan likvidli
Asosiy iqtisodiy birlik (yirik biznesda)	Kompaniya	Xolding	Moliyaviy-sanoat guruhi
Investitsiya turlari	Radikal	Murakkab	Inkremental
Menejmentni taqdirlash	Yuqori	O'rta	Past
Aktiyadorlik kapitalining tuzilmasi	Sochilgan	Kuchli jamlangan	O'amlangan

AQShdan farqli o'laroq, Germaniya aktsiyadorlik kapitalining katta qismi boshqa kompaniyalar egaligida turadi: Germaniyaning yalpi aktsiyadorlik kapitalining yarmidan ko'pini bir-birining aktsiyalariga egalik qilish orqali faoliyatda o'zaro qatnashish tizimi o'z ichiga oladi. Hususiy investorlar Germaniyada ikkinchi yirik investorlar guruhini tashkil qilsa ham (nemis kompaniyalarining taxminan 16% aktsiyasiga egalik qiladilar) ularning aktsiyalarining ko'p qismi taqdim etuvchiga sertifikat ko'rinishiga ega bo'lib, bu sertifikatlar ularning egalari topshirig'iga ko'ra, hususiy aktsiyadorlar aktsiyalarining juda katta qismi jamlangan banklar tomonidan boshqariladi. Shuning uchun, Germaniya kompaniyalarini erkin sotuvda bo'lgan aktsiyalarining juda katta hissasi (90%dan ortig'i) tashkilot-investorlar tomonidan boshqariladi (o'zlari aktsiya egalari bo'lmasa ham).

Nemis modelida kuzatuv va ijro qilish vazifalarining qat'iy ajratilishi

<sup>25</sup> A.S.Begmatov, M.B.Xamidulin, M.Sh.Bo'taboev. Korporativ madaniyat va korporativ boshqaruv.- T: «Akademiya» nashriyoti, 2007 y., 224 b

mavjud bo'lib, ikki kengashning o'zi aniq farqlanadigan huquqiy javobgarlik va vakolatlarga ega. Nemis qonunlari bevosita boshqarish va nazorat orasida aniq chegarani o'tkazadi. Ushbu model doirasida ijroiya kengashi kuzatuv kengashiga hisobdordir.

Yaponiyadagi direktorlar kengashining rasmiy tuzilmasi amerika tizimining ayni bir nushasidir (ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin amerikaliklar Yaponiyaga korporativ boshqaruvning o'z tizimini majburiy joriy qildirdilar). Amalda esa deyarli 80 foiz yapon ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari kengashlari tarkibida mustaqil direktorlar umuman qatnashmaydi, kengashlarning o'zi esa huddi Germaniyada bo'lganidek, kompaniya va uning asosiy «qatnashchilari» manfaatlarini ilgari suradi.

Shvetsiyada unitar kengashlar tizimi ishlaydi (ya'ni kuzatuv kengashi alohida tuzilma sifatida ajratilmagan), lekin uning amerikacha variantidan farq qilib, bu erda kompaniyaning «quyi» pog'onadagi xodimlarining direktorlar kengashidagi ishtiroki qonunan mustahkamlangan, shu vaqtning o'zida esa kompaniya menejmentining ishtiroki faqat kompaniya prezidentining ishtirokidan iborat.

Gollandiyada ikkilangan kengashlar tizimi keng tarqalgan, biroq Germaniyadan farqli ravishda, xodimlarning kuzatuv kengashlaridagi ishtirokiga yo'l qo'yilmaydi va kengashlar faqat mustaqil direktorlardan iborat.

Italiyada direktorlar kengashi unitar bo'lsada, sanoat tuzilmasi va Germaniyadagidan ko'ra AQShdagi vaziyatni eslatuvchi aksiyadorlik mulkchiligi tizimi chegarasida harakat qiladilar. O'uda ham katta italiya kompaniyalari oilalarga qarashli bo'lish hollari kam emas, shuning uchun u erdagi eng yirik aksiyadorlar deyarli har doim bir vaqtning o'zida menejer-direktorlardir.

Yuqoridagi jarayonlardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, evolyutsion o'tish yo'lini tanlagan O'zbekistonda, xususiylashtirish mustaqillikka erishgan birinchi kunlardan oq boshlangan bo'lsada, o'tish davri bilan bog'liq ko'pchilik salbiy oqibatlardan holi bo'lishga muvaffaq bo'lindi. Iqtisodiyotni isloh qilishda paydo bo'ladigan

muammolar va qiyinchiliklarni engish uchun O'zbekistonda, vaqt mobaynida yig'ilib borayotgan o'z tajribasiga hamda jahondagi eng muvaffaqiyatli bo'lgan ishlanmalarga tayanib ish ko'rildi.

Boshqaruv organlari va ular faoliyatini tashkil qilishning turli modellarini baholashda, har bir model o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega ekanligini tushunish muhimdir. Shunday tizimni tanlash kerakki, u O'zbekiston uchun «unikal» echimni akslantirishi va boshqa mamlakatlarda ishlatilayotgan modellarning shunchaki nusxasi bo'lib qolmasligi kerak. Bunda boshqaruvga nisbatan egiluvchan yondashuvshni qo'llab, muvofiq boshqaruv tizimi nafaqat alohida kompaniyalarda bo'lishi, balki bir kompaniyaning o'zida ham uning turli yashash davrida turlicha tanlanishi mumkinligini ham hisobga olish kerak.

## XULOSA

O'zbekistonda mustaqillik yillarida olib borilayotgan islohotlar natijasida korxonalar mulkning xilma-xil shakllariga asoslangan, turli tashkiliy shakllari vujudga keldi va rivojlanmoqda. O'umladan, korxonalarining aktsiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etilishidir.

Iqtisodiy islohotlarning jahon tajribasi, shu jumladan, O'zbekiston tajribasi korxonaning bu tashkiliy-huquqiy shakli davlat korxonalari xususiylashtirilishida ham, butunlay yangi korxonalar tashkil etilishida ham maqbul yo'l ekanligini ko'rsatdi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti mamlakatlari iqtisodiyotida korporativ mulk va aktsiyadorlik jamiyatlari hal qiluvchi o'rinni egallaydi.

Har qanday rivojlangan mamlakatdagi eng qudratli va eng tez rivojlanayotgan kompaniyalar aktsiyadorlik jamiyatlari ko'rinishida tashkil etilgan.

O'ahon tajribasini e'tiborga olgan holda, O'zbekistonda ham yirik korxonalarining deyarli barchasini xususiylashtirish jarayonida aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi.

Aktsiyadorlik jamiyatlari sanoat, qurilish, transport va savdo sohalarida

yalpi ichki mahsulotning asosiy qismini ishlab chiqarmoqda.

Xorij amaliyotida korporatsiyalarning tashkiliy strukturasi shakllantirishda korporativ usul mexanizmlaridan foydalanish tajribasi umuman olganda “korporativ boshqaruv shaklidagi tuzilmalar moliyasi” tizimini tartibga solish va takomillashtirish masalasi faol o’rganilmoqda va mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini e’tiborga olgan holda amaliyotga tadbiiq etishga xarakat qilinmoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida aktsiyadorlik jamiyatlari moliyasini samarali tashkil etish hamda moliyaviy boshqaruv tizimini modernizatsiyalash, jumladan, korporativ tuzilmalarning (aktsiyadorlik jamiyatlarining) uzoq muddatli yashovchanligi va raqobatbardoshligini o’tish davrida ta’minlash masalasi ular ishlab chiqarish salohiyatini tubdan qayta qurish va zamonaviylashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ushbu hol birinchidan, mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohatlar natijasida hozirgi zamon intensiv iqtisodiyotining asosini tashkil etuvchi korporativ tuzilmalarni vujudga keltirilganligi va ular iqtisodiyotda salmoqli o’rin tutishi bilan bog’liq bo’lsa;

ikkinchidan, respublikamizda bu toifadagi tuzilmalar mulkni tasarruf etish, ishlab chiqarishni boshqarishning samarali shakli sifatida e’tirof etilganligi va ularning mulkdorlar qatlamini shakllantirishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Bugungi zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda korporativ boshqaruv shaklidagi tuzilmalarni jadallashtirishdan asosiy maqsad, quyidagi ustivor vazifalarni hal etishga qaratilgan qator ilmiy xulosalar chiqarishga imkoniyat beradi.

-O’zbekiston milliy korporativ boshqaruv shaklidagi tuzilmalar moliyasi tizimini ishlab chiqilishini tezlashtirish, aktsiyadorlik jamiyatlari mulkdorlari va menejerlari, hamda tarmoqlararo nazorat organlari rahbarlari va keng iqtisodiy jamoatchilik orasida muhokama qilinishini tashkil qilish;

-aktsiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etish orqali xorijiy kapitalni jalb qilish bo’yicha jahon tajribasini tahlil qilish va

O'zbekiston sharoitiga moslashtirish;

-Respublikadagi aktsiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv va nazorat organlari korxonalar innovatsiya rivojlanishi ehtiyojlari uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganligi seziladi;

-joylarda, xorijiy investorlar investitsiya qarorlarini qabul qilishda katta e'tibor beradigan korporativ boshqaruv tamoyillarining to'la amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ichki korporativ qurilishi masalalarida tashabbus etishmayapti;

- hozirda milliy fond bozoriga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish vositasi sifatida qarashlarni e'tirof qilgan holda, fond bozori infratuzilmasining hozirgi kundagi holati jahon kapital bozoriga qo'shilib ketishga kam imkoniyat beradi.

- aktsiyadorlik jamiyatlarining "Toshkent" respublika fond birjasi rasmiy listingida o'z ihtiyori bilan ishtirok qilishga intilishlarini soliqlardan imtiyozlar va boshqa preferentsiyalar bilan rag'batlantirish;

- O'zbekiston milliy korporativ boshqaruv kodeksi ishlab chiqilishini tezlashtirish, aktsiyadorlik jamiyatlari mulkdorlari va menejerlari, hamda tarmoqlararo nazorat organlari rahbarlari va keng iqtisodiy jamoatchilik orasida muhokama qilinishini tashkil qilish.

- Korporativ boshqaruvning ichki korporativ normativ-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, qimmatli qog'ozlar bozori tizimini rivojlantirish, korxonalar boshqaruv organlari tuzilmasi tarkibiga kiradigan shaxslarning javobgarligini oshirishni hisobga olish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2010 y.
2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi.-T.: Adolat, 1996.-528 s.
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni 24.12.1998 y. №719- G.
4. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni 30.04.1998 y. №609- I.
5. O'zbekiston Respublikasining "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi qonuni 02.07.1992 y. №625-XP, yangi tahrirdagisi 29.08.2001 y.
6. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuni, 22.07.2008 y.
7. O'zbekiston Respublikasining "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning hukuqlarini ximoyalash to'grisida"gi qonuni 26.04.1996 y., №223-1, yangi taxrirdagisi 27.09.2008 y. №190 (4569).
8. 2010 yil 26 noyabrdagi №-1438-sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tiziminn yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori;
9. 2010 yil 15 dekabrdagi №-1442-sonli "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Karori;
- 10.2010 yil 29 dekabrdagi №PQ-1455-sonli "O'zbekiston Respublikasi 2011 yilgi investitsiya dasturi to'g'risida"gi Qarori;
- 11.2010 yil 24 dekabrdagi №1449-sonli "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.;
12. 2010 yil 18 noyabrlagi №PF-4053-sonli "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
- 13.2008 yil 28 noyabrdagi №-PF-4058-sonli "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-kuvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" Farmoni.

- 14.Karimov I.A. Osnovnie printsipi obshchestvenno-politicheskogo i ekonomicheskogo razvitiya Uzbekistana.- Tashkent:Uzbekistan, 1996.-37 s.
- 15.Karimov I.A. Uzbekistan na poroge XXI veka: ugrozi bezopasnosti, usloviya i garantii progressa,- M.: Izd.dom Drofa, 1997.-209 s.
- 16.Karimov I.A. Bizning bash maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.// Xadq so’zi, 2005 yil 19 yanvar.
- 17.Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to’g’risida- Toshkent: Uzbekistan, 2005.-252 b.
- 18.Karimov I.A. Erishilgai yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil xarakzt kilishimiz lozim.// Xalk suzi, 2006 yil 11 fevral.
- 19.Karimov I.A. Yangnlanish va barkaror taraqqiyot yo’lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish — asosiy va.zifamizdir.// Xa.chq so’zi, 2007 yil 13 fevral.
- 20.Karimov I.A. .Dalneyshaya modernizatsiya i obnovlenie strani -trebovanie vremeni.// (Narodnoe slovo, 14.02.2009 g).
- 21.Karimov I.A. O’axon moliyaviy-iktisodiy inkirozi, Uzbekistan sharoitida uni bartarif etishning yo’llari va choralari.-T.: Uzbekistan, 2009.-56 b.
- 22.Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi”. 2008 yilda mamalakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturlarning eng muhim ustivor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. “Xalq so’zi” 2009 yil 14 fevral
- 23.I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz—vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” I.A.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. 2010 yil 29 yanvar
- 24.I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish” I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. – T.: O’zbekiston. 2013. – 64 b.
- 25.Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod vatan qolsin» Toshkent, «O’zbekiston», 1996.
- 26.Karimov.I.A “O’zbekiston buyuk kelajak sari ”.- Toshkent:O’zbekiston,1998 yil
- 27.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo’nalishlariga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining majlisidagi “Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish” mavzusidagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. – T.: “O’qituvchi” NMIU. – 2013

28. Bekmurodov A.Sh., Gafurov U.V. O’zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustivor yo’nalishlar. O’quv qo’llanma. . T.: “TDIU”, 2007. 120 b.
29. Barinov E.A., Ximiz O.V. Rinki: valyutnie i tsennix bumag. – M.: Ekzamen, 2001. – 608 s.
30. Butikov I.L. «Qimmatli qog’ozlar bozovari». –T.: Konsauditinform, 2001, - 472.
31. Berzon N.I. i dr. Fondoviy rinok: Uchebnoe posobie dlya vuzov ekonomicheskogo profilya. – 2-e izd. – M.: Vita-Press, 1999. – 400 s.
32. Vaxobov A.V., O’umaev N.X., Burxonov U.A. Xalkaro moliya munosabatlari.-T.: Sharq, 2003.-400 b
33. Rinok tsennix bumag: Uchebnik/Pod red. V.A. Galanova, A.I. Basova. – M.: Finansi i statistika, 2000.
34. Tsennie bumagi: Uchebnik/Pod red. V.I. Kolesnikova, V.S. Torkanovskogo. 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Finansi i statistika, 2000. – 448 s.
35. Rubtsov B.B. Mirovie rinki tsennix bumag.-M.: Ekzamen, 2002.-447 s.
36. Xominich I.P. Finansovaya globalizatsiya //Bankovskie uslugi, №8, 2002. – s.2-13.
37. Ernando De Soto. Sekret kapitala. Pochemu kapitalizm torjestvuet na Zapade i terpit porajenie vo vsem ostalnom mire./Per. s angl.- M.: ZAO Olimp-Biznes, 2001.-272 s.
38. Mirkin Ya.M. Rinok tsennix bumag Rossii: vozdeystvie fundamentalnix faktorov, prognoz i politika razvitiya.-M.: Alpina Pablisher, 2002.-583 s.
39. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl. - M.: INFRA-M, 1999. - XII, 1028 s.
40. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Rinki: finansovie i tsennix bumag. – T.: TFI, 2003. – 196 s.
41. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Osnovi teorii i praktika ekonomiki privatizatsii. – T.: Ibn Sino, 2004. – 852 s.
42. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Birjevaya deyatelnost. Uchebnik.-T.: Ilm ziyo, 2006.- 288 s.
43. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Finansoviy rinok i tsennie bumagi. Kniga I. Uchebnik.-T.: Iqtisod-moliya, 2005.-728 s.
44. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Finansoviy rinok i tsennie bumagi. Kniga II. Uchebnik.-T.: Iqtisod-moliya, 2005.-849 s.
45. O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining yillik ma’lumotlari.
46. O’zbekiston Respublikasi Statistika Vazirligining yillik axborotnomalari

- 47.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2007 yil. -T.:20084.-№5.
- 48.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2008 yil. -T.:2009.-№10.
- 49.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2009 yil. -T.:2010.-№12.
- 50.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2011.-№9.
- 51.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№6.
- 52.O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2008 - 2012.

#### **Internet saytlari.**

- 53.<http://www.press-service.uz>- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti axborot markazi sayti
- 54.<http://www.gov.uz>- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti
- 55.<http://www.soliq.uz>- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti
- 56.<http://www.mf.uz>- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
- 57.<http://www.nalog.ru>- Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti
- 58.<http://www.stat.uz>- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
- 59.<http://www.lex.uz>- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.
- 60.<http://www.tfi.uz>- Toshkent moliya instituti sayti.